

**KOMMUNIKATIV YONDASHUV ASOSIDA O'QITISHNING PEDAGOGIK-  
PSIXOLOGIK ASOSLARI**

Xoliqova Matluba Mardon qizi

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lif fakulteti

Boshlang'ich ta'lif kafedrasи assistenti

[xoliqovamatluba5@gmail.com](mailto:xoliqovamatluba5@gmail.com)

Telefon raqam+99899773-36-01

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada kommunikativ yondashuv asosida o'qitishning pedagogik-psixologik asoslari, boshlang'ich ta'linda kommunikativ yondashuvning ahamiyati va afzalliliklari juda muhim hisoblanishi, bu yondashuv ta'lif jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga yordam berishi haqidagi fikrlar to'g'risida ma'lumotlar beriladi.

**Kalit so'zlar:** kommunikativ yondashuv, pedagogik-psixologik, o'qitish, ta'lif, o'quvchi, o'qituvchi.

**Аннотация.** В данной статье очень важными считаются педагогические и психологические основы обучения на основе коммуникативного подхода, важность и преимущества коммуникативного подхода в начальном образовании, а также высказываются мнения о том, что данный подход помогает сделать учебный процесс более эффективным и интересным. Информация представлена.

**Ключевые слова:** коммуникативный подход, педагогико-психологический, обучение, воспитание, ученик, учитель.

**Annotation.** This article provides information on the pedagogical and psychological foundations of teaching based on the communicative approach, the importance and advantages of the communicative approach in primary education, and the ideas that this approach helps to make the educational process more effective and interesting.

**Key words:** communicative approach, pedagogical-psychological, teaching, education, student, teacher.

---

**KIRISH.** Bugungi kun ta'limi ilg'or pedagogik texnologiyalarga asoslanishni taqozo qilmoqda. Binobarin, yangi pedagogik texnologiyalar o'quvchining aqliy zakovati, erkin fikrlashi, mustaqil faoliyat ko'rsatishni ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qilayotir. Bolalarning ijtimoiy munosabatlarini shakllantirishda aynan boshlang'ich sinflarda olingan bilim va ko'nikma juda muhim hisoblanadi. Bu yoshda bolalar ko'proq o'zaro do'stlik o'rnatishadi va guruhlarda ishlashni o'rganishadi. Bolalar o'zlarini o'quvchi sifatida anglashi va bilimlarini oshirishi juda muhimdir.

**ASOSIY QISM.** O'zbekiston Respublikasida ta'lif sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyatda sodir bo'layotgan demokratik o'zgarishlar, yangi jamiyat barpo etish yo'lidan dadil yetaklovchi, harakatlantiruvchi ichki kuchga aylanmoqda. Respublikamiz mustaqillikka erishgach, yangi ijtimoiy tuzumning maqsadi, vazifalariga mos keladigan, vazifalariga mos keladigan va uni amalga oshiradigan kadrlarni tayyorlash ehtiyojidan kelib chiqib, ta'lif va tarbiya tizimini yangilash vazifasi qo'yildi. Shu sababli ta'lif davlatimiz ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e'lon qilindi [1].

Ijtimoiy hayotda yashayotgan har bir inson o‘zgalarni tinglash, o‘z fikrini birovlarga yetkazish, ya’ni gapirish, fikrlarini ba’zan yozma tarzda bayon eta olish, insonlar bilan muloqotga kirisha olish xislatlariga ega bo‘lishi kerak. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirish zamонавиу о‘qituvchining vazifalaridan biri sifatida qaralishi hamda uni hal qilish, sинфда ham, o‘quvchilarning darsdan tashqari bo‘lgan faoliyatida ham amalga oshirilishi kerakligini nazarda tutadi.

Mustaqillikdan keyin amalga oshirilayotgan ta’lim tizimidagi islohotlar tufayli ulkan o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Odamlarning ongi, dunyoqarashi o‘zgardi. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellectual va ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo‘lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishida, har bir fuqaroning bilim olishida, ijodiy qobiliyatini shakllantirishda, intellektual jihatdan rivojlanirishda o‘qituvchining muloqot madaniyati va muomalasi muhim ahamiyatga ega. Shuni ta’kidlash joizki, pedagogic kasbga nisbatan talab va javobgarlik ham kuchaydi, o‘qituvchilarning jamiyat oldidagi vazifalari yanad oshdi. Buyuk ma’naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg‘unlashtirish, uni jahon andozalari darajasiga chiqarish, o‘quvchilarda mustaqil va erkin fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilish kabi vazifalarga javobgarlik hissi o‘qituvchilar zimmasdiga yuksaltirildi [2].

Ta’lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish o‘quvchilar tomonidan mayjud ilmiy bilimlarni puxta o‘zlashtirilishini kafolatlovchi yondashuv hisoblanadi. Ta’lim texnologiyasi ta’lim jarayonining mohiyati, uning bosqichlari, o‘ziha xos xususiyatlari, shuningdek o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida kechadigan ta’limiy munosabatlarning mazmunini anglatishga xizmat qiladi [3].

Kichik maktab yoshidagi bugungi davr bolalari o‘zlarining giperfaolligi va o‘ta ta’sirchanliklari bilan o‘tgan asrdagi tengdoshlaridan farq qilishadi. Bunday giperfaollik natijasida bolalar kinestetik, tez toliqadigan va diqqatni jamlab, ma’lum nuqtada uzoq saqlab tura olmaydigan bo‘lib qolishgan.

Bugungi davr bolalari tug‘ma o‘tkir zehn sohiblari bo‘lib, ular axborot olishga juda o‘ch. Agarda ularning axborot qabul qilishga kuchli ehtiyojlari vaqtida qobdirilmasa, ular injiq va jahldor bo‘lib qolishadi. Axborotga o‘chlik televizor va kompyuter qarshisida ko‘p o‘tirilishi natijasida shakllangan.

Muloqot, hamkorlik sifatida, hamkorlik va o‘zaro ta’sirni o‘rnatish va amalga oshirishga qaratilgan kommunikativ ta’lim harakatlari guruhini o‘z ichiga oladi. Ushbu harakatlarning mohiyati umumiy maqsadga erishishda sa’y-harakatlarni birlashtirishdan iborat bo‘lib, buning uchun suhbatdoshta e’tibor qaratish kerak [4]

Kommunikativ yondashuv barcha o‘quvchilarni kommunikativ kompetensiyasini egallahsga, ya’ni tildan to‘g‘ri va to‘g‘ri foydalanishga qaratilgan. Asosiy e’tibor o‘quvchiga qaratilgan bo‘lib, o‘qituvchi faqat yordamchi hisoblanadi. Kommunikativ o‘quv va o‘quv dasturlarini tayyorlash uchun ehtiyojni tahlil qilish va rejalashtirishga asoslanadi.

Boshlang‘ich ta’limda o‘qitishni kommunikativlik asosida tashkil etish o‘quvchilarda mustahkam muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlanirish uchun juda muhimdir. Bu yondashuv o‘quvchilarni o‘z fikrlarini aniq ifoda etishga, boshqa odamlar bilan o‘zaro muloqot qilishga va jamoa bilan ishslashga o‘rgatadi.

**XULOSA.** Boshlang‘ich ta’limda kommunikativ yondashuvni qo’llash o‘quvchilarning faqat nazariy bilimlarini oshirish bilangina cheklanmay, balki ularning kelajakda muvaffaqiyatli shaxs bo‘lib shakllanishlariga zamin yaratadi. Shu bilan birga ta’lim jarayonini yanada qiziqarli va mazmunli qiladi.

## **FOYDALANILGAN ADABOYOTLAR RO‘YXATI**

1. Umumiy pedagogika I qism YOSHLAR NASHRIYOTI UYI Toshkent 2020. B.6.
2. Xoliqov A Pedagogik mahorat “Pedagogika va psixologiya ta’lim yo‘nalishi”ning bakalavr talabalari uchun darslik sifatida etilgan. “TAFAKKUR BO‘STONI” Toshkent 2021. B.104.
3. Axmedova M.T “Pedagogik konfliktlogiya”, Toshkent “Donishmand ziyosi” 2020. B.2020. B.204.
4. Hamidova N., Fayziyev M “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikativ ta’lim harakatlarini shakllantirishning pedagogik tashkiliy masalalari”. “BILIG-ILMIY FAOLIYAT” nashri [http://journal.bilik.uz](http://journal.bilig.uz). FTAI jild:04. Nashr:03.May 2023.B.88.